XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-iyul VI-77-90-4-0-K/24 Qashqadaryo viloyati

Kitob tumanidagi ayrim aholi punktlari nomlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4- va 9-moddalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 26-maydagi (08-04300-son), 2023-yil 13-yanvardagi (15-00051-son), 2023-yil 2-iyundagi (15-01027-son), 2021-yil 11-oktabrdagi (02-14-438-son) ekspertiza xulosalari, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 31-maydagi 15/1878-son, 2023-yil 25-yanvardagi 15/397-son, 2023-yil 4-iyuldagi 15/2903-son, 2021-yil 26-oktabrdagi 4/2951-son xulosalari, 2024-yil 24-iyundagi B-01-15/232-son yig‘ilish bayoni, Kitob tumani hokimining 2024-yil 10-iyundagi 01-940-sonli hamda 01-941-sonli takliflarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining ekspertiza xulosalari, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining xulosalari, yig‘ilish bayoni, Kitob tumani hokimining takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kitob tumanidagi yangidan tashkil topgan geografik obyektlar nomlari ***1-ilova***ga, aholi talabiga ko‘ra tarixiy nomlari tiklangan geografik obyektlar nomlari ***2-ilova***ga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (F.Muhammadiyev), viloyat statistika boshqarmasi (Sh.Tayloqov), Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev), Kitob tumani hokimligi (R.G‘afurov) mazkur qaror ilovasida ko‘rsatilgan aholi punktlari nomlarini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

4. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), Kitob tumani hokimligi (R.G‘afurov) yangidan nomlangan va nomi o‘zgargan aholi punktlariga aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli yo‘l belgilarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev), Kitob tumani hokimligi (R.G‘afurov) birgalikda yangidan nomlangan va nomi o‘zgargan aholi

punktlariga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va koʻrsatkich belgilari oʻrnatilishini taʼminlasin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (A.Sodiqov), viloyat hokimligi yuridik xizmati (N.Raxmatov) mazkur qarorning viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga oʻrnatilgan tartibda joylashtirilishini taʼminlasin.

7. Viloyat hokimining maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash masalalari boʻyicha maslahatchisi (N.Egamov) mazkur aholi punktlari nomlarni 10 kun muddatda davlat reyestri bazasiga kiritish choralarini koʻrsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sud-huquq va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (R.Raupov) va viloyat hokimining maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash masalalari boʻyicha maslahatchisi (N.Egamov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi AZIMOV MUROTJON BERDIALIYEVICH

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-77-90-4-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Kitob tumanidagi yangi tashkil topgan geografik obyektlar nomlari

T/r	**Geografik obyekt joylashgan mahalla**	**Geografik obyekt turi**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Geografik obyektga tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif**	**Ekspertiza xulosasi**
1.	“Samarqand” MFY	aholi punkti	Gulshan	Olmazor	Qonun talablariga muvofiq
2.	“Istiqbol” MFY	aholi punkti	Nomsiz	Yangi Charmgar	Qonun talablariga muvofiq
3.	“Varganza” MFY	qishloq	Qo‘shchinor	Bog‘i Behisht	Qonun talablariga muvofiq

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-77-90-4-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Kitob tumanidagi tarixiy nomlari tiklanayotgan geografik obyektlar

T/r	MFY nomi	O‘zgar-tiriladigan obyekt turi	Obyektning amaldagi nomi	Taklif qilingan nom	Ekspertiza xulosasi
1	“Beshariq” MFY	shaharcha	Baxt darvozasi	Beshariq	Qonun talablariga muvofiq
2	“Palandara” MFY	aholi punkti	Kunchiqar	Oftobro‘ya	Qonun talablariga muvofiq
3	“Palandara” MFY	aholi punkti	Yuqori Kunchiqar	Yuqori Oftobro‘ya	Qonun talablariga muvofiq
4	“Obod” MFY	aholi punkti	Ko‘rkli	Ko‘sam	Qonun talablariga muvofiq
5	“Obod” MFY	aholi punkti	Sarbontepa	Qushboshi	Qonun talablariga muvofiq
6	“Tevaboshi” MFY	aholi punkti	Hunarmand	Qishloqcha	Qonun talablariga muvofiq